

Surxondaryoda qurilish sohasi xodimlari kuni keng nishonlandi



Surxondaryoda qurilish sohasi xodimlari kuni keng nishonlandi

Mamlakatimizda har yili avgust oyining ikkinchi yakshanbasi qurilish sohasi xodimlari kuni sifatida keng nishonlab kelinadi munosabat bilan kecha va bugun Surxondaryo viloyatining barcha hududlarida bayram tantanalari bo'lib o'tdi.

Kuni kecha Termiz shahridagi "Afruz" tantanalar saroyida o'tkazilgan viloyatning asosiy bayram tadbirida usta binokorlar, me'mor va loyihachilar, pudratchi tashkilotlar vakillari, mehnat faxriylari va sohaning fidoyi mutaxassislari taklif etildi.

Tantanali tadbirda Surxondaryo viloyati hokimining birinchi o'rinbosari Fayzulla Mamanov viloyat hokimining voha quruvchilariga bayram tabrigini o'qib eshittirdi.

Tadbirda ko'p yillik samarali mehnati, soha rivojiga qo'shgan munosib hissasi, shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish borasidagi fidokorona xizmatlari uchun

bir guruh soha vakillari viloyat hokimligining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Viloyatimiz san'at ustalari va poytaxtdan tashrif buyurgan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Mahmud Namozov, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Hosila Rahimova, estrada xonandasi Hulkar Abdullaeva singari el ardog'idagi san'atkorlar ijrosidagi kontsert dasturi barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.